

**KO'ZI OJIZ  
BOLALARNI OILADA  
TARBIYALASH**

# REJA

- Tarbiya haqida umumiy tushuncha
- Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiya usullari
- Ko'r va ko'zi ojiz bolalarga estetik tarbiya berish.
- Ko'rishda nuqsoni bor bolalar mehnat tarbiyasi.
- Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar jismoniy tarbiyasi.
- Ma'naviy-axloqiy tarbiya.

# TARBIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

- **Tarbiya** – ma’naviy manbaalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o’qituvchining o’quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o’zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalar tarbiyasi maqsad va vazifalari pedagogikaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Tarbiyani umumiy vazifasi maxsus vazifa bilan bog’liqlikda amalga oshiriladi. Jumladan, birlamchi, ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish bilan birga olib boriladi.

# **KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TARBIYASIDA KO'RINADIGAN SALBIY HOLATLAR**

- yumshoq tarbiyaga muxtoj sifatlari;
  - o'yin, o'qish, mehnat faoliyati cheklanganligi;
  - begonalar bilan muloqotga kirishdagi qiyinchiliklar;
  - o'z o'ziga xizmat qila olmasligi (yoki ulardagi kamchiliklar);
  - madaniy, ma'naviy bilimlarning sayozligi (yo'qligi) kabi lardir;
  - ko'zida nuqsoni bo'lgan bolalarni yosh va yakka xususiyatlarni hisobga olib yuqorida zikr qilingan kamchiliklarni bartaraf etishdir.

# KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING TARBIYA USULLARI

- **Tarbiya usullari** – o'qituvchi-tarbiyachilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy hulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir. Tarbiyaviy usullarni ularning vazifasiga qarab quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:
  - Ijtimoiy ahloqni tarkib toptirish va o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish usullari:
  - o'rgatish, ibrat-namuna, ishontirish, o'yin-musobaqalar.
  - Ibrat usuli.
  - Namuna usuli.

# NAMUNA YOKI IBRAT USULI

- **Namuna yoki ibrat usuli** bolalardagi taqlidchilikka asoslanadi. Kattalarning xulq-atvorini, yurish-turushini ongli yoki ixtiyorsiz odatda bolalar o'zlarining yaqinlari, tevarak-atrofdagi kishilarning (ota-onalari, opa-akalari, muallimlari, kattalar, tengko'rarlari) xulq-atvorini va xatti-harakatlarini kuzatib boradilar, ularga taqlid qiladilar.



# ISHONTIRISH USULI.

- Bu bo'limga ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari kiradi.



# TUSHUNTIRISH VA O'QTIRISH.

- Tushuntirishning mohiyati jamiyatning ma'naviy va moddiy hayotidagi eng muhim voqealar to'g'risida axborot berish asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar diqqatini tevarak-atrofdagi voqelikka, o'z fuqarolik burchlariga ongli munosabatini shakllantirishga qaratishdan iboratdir.
- Uqtirish biror axloqiy fazilatni ko'rishda nuqsoni bor o'quvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan o'qib olishni ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilar va tarbiyachilar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni, o'quvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim.



# KO'RISH NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALAR TARBIYASI:

- estetik tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- mehnat tarbiyasi;
- ma'naviy-axloqiy tarbiya kiradi.



# ESTETIK TARBIYA.

- Estetik tarbiya insonning har tomonlama tarbiyalashning muhim qirralaridan biri bo'lib hisoblanadi. Estetik tarbiya borlikka (hayotga), mehnatga, tabiatga, san'atga munosabatini shakllantirish xis-tuyg'usini tarbiyalash demakdir. Estetik tarbiya shunday kuchga egaki, san'at asarlaridaki (badiiy tasviriy) tasvirlangan syujet, xodisa, idrok etishning tasavvurida, xayolida kechilmalarda estetik xissiyotida qayta ishlanib uning o'z tajribasiga aylanadi.
- Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ular jismoniy va aqliy faoliyatning o'yin, o'quv va mehnat kabi huquqlaridan sog'lom tengko'rlaridek o'zlarini ko'rsata olmaganliklari uchun qobiliyatlari va kuchlarini o'z imkoniyatlari doirasidagi malaka va ko'nikmalarni egallashda sarflaydilar. natijada aynan o'sha sohada yuqori natijalarga erishadilar.

# JISMONIY TARBIYA

- **Jismoniy tarbiya** – salomatlikni mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirish, mehnatga, hayotga tayyorlash, ko'r va zaif ko'ruvchi bolani shaxs sifatida kamol topishida birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash vositalaridan biridir. Jismoniy tarbiya ko'r bolalarni har tomonlama tarbiyalashda harakatlanish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda jismoniy tayyorgarlikka izchillik qobiliyatini oshirishda etakchi o'rin egallaydi.

- Ko'r va zaif ko'ruvchi bolani jismoniy rivojlantirishning **asosiy vazifasi**: harakat kamchiliklarini korreksiyalash. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda: tanani bo'yi hamda og'irligi, kamchiliklar, ko'krak kengligi va boshqa antropometrik ko'rsatkichlarning orqada qolishlari uchraydi.



- Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda jismoniy tarbiya berish tizimiga quyidagilar kiradi:
  - Jismoniy sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar (kundalik faoliyat davomida), (ertalabki gimnastika, sayr o'yinlari va boshqalar);
  - Maxsus jismoniy tarbiyani mashg'ulotlari (majburiy);
  - Guruhdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlari (sport sektsiyalari, oylik sport kuni bayrami).



# MEHNAT TARBIYASI

- Bolalarni mehnatga o'qitish va tarbiyalash natijasida ilk hayotiy ko'nikmalari shakllanadi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda mehnat tarbiyasi yuqoridagilardan tashqari nosog'lom funktsiyani korreksiyalash va kompensatsiyalashdagi asosiy omil sifatida qaraladi. KNB bolalar MTM hamda maktab internatda amalga oshiriladigan barcha o'quv tarbiyaviy ishlarning samaradorligi mehnat tarbiyasiga bog'liq.
- Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning mehnat tarbiyasi. MTMdagi mehnat tarbiyasi, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni korreksiyalash, kompensator jarayonini rivojlantirish. Estetik tarbiyalash ko'r va zaif ko'ruvchi bolaning shaxsiy xususiyatini tarbiyalashga qaratilgan.

# ASOSIY VAZIFALAR

- mehnatsevarlikni tarbiyalash;
- insonlarning mehnatga mexr qo'yishi;
- boshlang'ich mehnat faoliyatini shakllantirish;
- mehnat qurollari va vositalarini asrab avaylash;
- o'simliklarni parvarish qilish va turli narsa buyumlarni ishlashining boshlang'ich umumta'lim tizimlarini egallash;
- kasb-hunar dastlabki tushunchalarni shakllantirishdir.



- Maxsus vazifalar ko'ri va zaif ko'ruvchi bolalarni rivojlanishini nuqsonlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash jarayonini to'ldirishda xizmat qiladi. Bu vazifalarga:
- idrok etishni rivojlantirish;
- eshituv, sezish idrokni rivojlantirish;
- turli mehnat jarayonini bajarishda saqlangan ko'ruv funktsiyadan foydalanish;
- ko'ruv amaliy fikrlashni rivojlantirish;
- Fazoda mo'ljal olishni shakllantirish;
- mehnat faoliyatida ishtirok eta olish va boshqalar.



# MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYA

- **Ma'naviy-axloqiy tarbiya** deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda hulq-odob me'erlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishini tushunamiz. Axloqiy tarbiya, mohiyati alohida shaxs uchungina emas, balki jamiyatning kelajagi, uning qanday jamiyat bo'lishi uchun ham muhimdir.

- Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni axloqiy tarbiyalash uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya etish alohida ahamiyatga ega:
- umumiy va yakka xususiyatlarni aniqlash uchun ularni atroflicha o'rganish;
- birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni tahlil etish;
- kuchli, nisbatan saqlangan imkoniyatlarni aniqlash va shunga asoslanib ish olib borish;
- pedagogik jarayonning bolalar nuqsonlarini to'g'rilash va ularni o'rnini to'ldirishga qaratilishi;
- turli toifa nuqsonlariga alohida munosabatda bo'lish, ayrim bolalarga yakka yondoshish.

- Maxsus maktab-internatda axloqiy tarbiyaning quyidagi vazifalari hal etiladi:
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy-hulqiy ko'nikmalarni tarbiyalash;
- ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda axloqiy xis-tuyg'ularni tarbiyalash;
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy ingni, mustahkam axloqiy e'tiqod tarbiyalash.

